

**ALEKSANDR FAYNBERG LIRIKASIDA KUZ FASLI MOTIVI: “KUZ” SHE’RI
TAHLILI****Zamira Moldiyeva Bahodirovna****Ingliz Filologiya fakulteti talabasi, O‘zDJTU****Email: zamiramoldiyeva219@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.18955556>**

Annotatsiya: Mazkur maqolada Aleksandr Faynbergning “KUZ” she’ri asosida kuz fasli motivi, tabiat manzaralari va inson ruhiyatidagi o‘tkinchilik tasvirlanadi. She’rda kuzning go‘zalligi, o‘tkinchiligi, barg tushishi, turnalarning ketishi orqali vaqt va hayotning o‘tkinchi tabiati poetik tarzda ifodalanadi. Maqolada badiiy obrazlar, metaforalar, ramziy tasvirlar va poetik vositalar tahlil qilinadi, shuningdek, shoirning insoniy kechinmalarni tabiat orqali aks ettirishdagi mahorati ham yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Aleksandr Faynberg, “KUZ” she’ri, kuz fasli, tabiat motivi, o‘tkinchilik, poetika, badiiy obraz, inson ruhiyati, fasllar tasviri, metafora.

Kirish

Fasl motivi XX asr adabiyotida ko‘plab shoir va yozuvchilar ijodida markaziy o‘rin tutadi. Kuz fasli, tabiatdagi o‘zgarishlar va o‘tkinchilik bilan bog‘liq bo‘lib, inson ruhiyati va hayotiy kechinmalarni poetik tarzda aks ettirish imkonini beradi. Aleksandr Faynberg ham o‘z lirikasida kuz faslini nafaqat tabiat manzaralari orqali, balki inson kechinmalari orqali talqin qiladi.

“KUZ” she’ri kuzning go‘zalligi va o‘tkinchiligini, shuningdek, inson ruhiyatidagi noaniq, ayriliq va xayrlashish hissini aks ettiradi. Shoir bu she’rida tabiatni jonli, rang-barang tasvirlar bilan berib, o‘quvchini fasl manzaralariga yetaklaydi va ularni ruhiy tafakkurga chorlaydi.

Muhokama

Kuz fasli va tabiat manzaralarining poetik talqini

“KUZ” she’ri tabiat manzaralari orqali kuz faslini jonli tasvirlaydi. Masalan, dalalarda tuman tarqalur, qanday toza, qanday sof havo jumalari kuzning tozaligi va yangiligi hissini beradi. Oltin kuz bu – qirmizi billur / Oltin kuz bu – qirmizi navo jumalari esa rang-barang, musiqiy ohangdagi kuz manzarasini yaratadi.

She’rda tabiatning kichik detallariga ham e’tibor qaratilgan: qushlar, arg‘imchoqlar, barg tushishi, yalang‘och shoxlar kabi tasvirlar kuz faslining nozik jihatlarini ochib beradi. Masalan, xazon kabi to‘kilar quyosh / Ozg‘in shoxlar, yalang‘och shoxlar jumalari orqali tabiat va faslning o‘tkinchiligini his qilish mumkin.

O‘tkinchilik va vaqt motivi

She’rda kuz fasli inson ruhiyatidagi o‘tkinchilik bilan uyg‘un tarzda berilgan. Turnalardek ketmoqda uzoq / Xayrlashadi, xayrlashadi kuz jumalari orqali Faynberg faslning vaqt bilan bog‘liq o‘tkinchiligini aks ettiradi. Turnalarning ketishi, barg tushishi — hayotning o‘tkinchi tabiatini ramziy tarzda bildiradi.

Shoir kuzni nafaqat tabiat o‘zgarishi, balki inson kechinmalari bilan bog‘laydi. Shu jumalarda faslning xayrlashish motivi, hayotiy o‘tkinchilik va insoniy hislar uyg‘unlashadi. Bu esa o‘quvchida fasl va insoniy ruhiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni his qilish imkonini beradi.

Badiiy vositalar va poetik uslub

“KUZ” she’rida ko‘plab badiiy vositalar ishlatilgan: metafora, simvol, ritm va tasviriy obrazlar. Masalan, xayrlashadi, xayrlashadi kuz jumlasini takroriylik orqali faslning o‘tkinchiligini

va inson ruhiyatidagi og'irlikni kuchaytiradi. Shitir-shitir uchar tom oshib jumlasida esa tabiiy elementni jonli, eshitiladigan tarzda berib, o'quvchida kuzning jonliligini his qilish imkonini beradi.

Faynberg poetikasining xususiyati shundaki, u murakkab tuyg'ularni sodda va ravon tilda ifodalaydi, shu bilan birga she'r mazmuni chuqur va ta'sirchan bo'ladi. Detallar orqali yaratilgan badiiy obrazlar o'quvchida kuz faslining nafaqat ko'rinishini, balki hissiy rangini ham uyg'otadi.

Kuz fasli va insoniy kechinmalar

She'rda fasl motivi inson ruhiyati bilan uyg'unlashadi. Barg tushishi, turnalarning ketishi, xazon va yalang'och shoxlar kabi tabiat elementlari shaxsiy kechinmalar bilan bog'lanadi. Shoir kuzni xayrlashish, o'tkinchilik va o'tkir kechinmalar bilan bog'lab, o'quvchiga ruhiy tafakkur imkonini beradi.

Qushdek uchmas sho'x arg'imchoqlar va oynalari – yig'layotgan ko'z jumalari orqali shoir tabiat va inson ruhiyatidagi uyg'unlikni ko'rsatadi. Shu tariqa kuz fasli va insoniy kechinmalar bir-birini to'ldiradi, o'quvchida o'tkinchilikni, tabiat va hayotning o'zaro bog'liqligini his qilish imkonini beradi.

Xulosa

Aleksandr Faynbergning “KUZ” she'ri kuz faslini badiiy va chuqur talqin qiluvchi yorqin asarlardan biridir. Shoir tabiat manzaralari, rang-barang detallari va inson ruhiyatidagi o'tkinchilikni uyg'un tarzda tasvirlaydi.

She'rda tuman, barg tushishi, qushlar va turnalar kabi obrazlar kuz faslining go'zalligini va vaqtning o'tkinchiligini aks ettiradi. Shu bilan birga, o'quvchida fasl va inson ruhiyati o'rtasidagi uyg'unlikni his qilish imkonini yaratadi. Faynberg poetik mahorati, badiiy tasvirlari va metaforik ifodasi orqali o'quvchini kuz manzarasiga chuqur sho'ng'itadi va milliy lirikaning nozik jihatlarini namoyon qiladi.

Shu sababli, “KUZ” she'ri Faynberg lirikasida kuz fasli motivining yorqin namunasidir va XXI asr o'quvchisi uchun ham estetik va ruhiy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Faynberg, A. Saylanma asarlar. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2009.
2. Karimov, N. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O'zbekiston, 2010.
3. Qosimov, B. Adabiyot nazariyasi. Toshkent: Sharq, 2006.
4. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. “Aleksandr Faynberg” maqolasi. Toshkent, 2001.